IJOBIY ISTAK BILDIRUVCHI BIRLIKLARNING STRUKTURAL XUSUSIYATLARI HAQIDA

Jumaboyeva Aziza Baxtiyor qizi,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti doktoranti

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19606552

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tili va uning Xorazm hududidagi shevalarida faol qo‘llanuvchi ijobiy istak bildiruvchi lisoniy birliklar (duo, olqish, tilak, nutqiy etiketlar)ning leksik-morfologik, sintaktik va frazeologik tuzilishi ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Maqolada ijobiy istak bildiruvchi birliklarning struktural qoliplari, ularning pragmatik va kommunikativ xususiyatlari hamda dialektal nutqdagi xususiyatlari chuqur lingvistik tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijobiy istak, struktural tadqiq, sintaktik qolip, leksik-semantik tuzilish, pragmatika, etnolingvistika, dialektal variantdorlik, illokutiv akt.*

Аннотация. *В данной статье в научно-теоретическом аспекте исследована лексико-морфологическая, синтаксическая и фразеологическая структура активно используемых в узбекском языке и его хорезмских говорах языковых единиц, выражающих позитивные пожелания (благословения, благопожелания, напутствия, речевой этикет). В статье глубокому лингвистическому анализу подвергнуты структурные модели единиц, выражающих позитивные пожелания, их прагматические и коммуникативные характеристики, а также особенности их функционирования в диалектной речи.*

Ключевые слова: *позитивное пожелание, структурное исследование, синтаксическая модель, лексико-семантическая структура, прагматика, этнолингвистика, диалектная вариативность, иллокутивный акт.*

Abstract. *This article provides a scientific and theoretical study of the lexical-morphological, syntactic, and phraseological structure of linguistic units expressing positive wishes (blessings, well-wishings, greetings, and speech etiquette) that are actively used in the Uzbek language and its Khorezm dialects. The structural patterns of these positive-wish units, their pragmatic and communicative features, as well as their specific characteristics in dialectal speech, are subjected to an in-depth linguistic analysis.*

Keywords: *positive wish, structural study, syntactic pattern, lexical-semantic structure, pragmatics, ethnolinguistics, dialectal variation, illocutionary act.*

Kirish. Jahon tilshunosligida inson omili va uning nutqiy faoliyatini tadqiq etish antropotsentrik paradigmaning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Olamning lisoniy manzarasida so‘zlovchining ichki kechinmalari, ezgu niyatlari va muloqot madaniyati ko‘proq ijobiy istak bildiruvchi birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida xohish-istak kategoriyasi konseptual va pragmalingvistik aspektda turli tadqiqotlar obyektiga aylangan bo‘lsa-da, ushbu birliklarning sof struktural xususiyatlari, ya’ni ularning leksik, morfologik va sintaktik sathlarda qanday shakllanishi masalasi to‘liq ochib berilmagan.

Ma’lumki, xohish-istak konseptlari tilning modallik tizimida markaziy o‘rin tutadi hamda so‘zlovchining voqelikka nisbatan sub’ektiv munosabatini ifodalashda muhim

vazifani bajaradi. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodi va kundalik muloqotning eng xarakterli xususiyatlarini o‘zida jamlagan ijobiy istak birliklari (duolar va olqishlar) asrlar davomida sayqallanib, o‘ziga xos barqaror lisoniy strukturaga ega bo‘lgan. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Xorazmdagi o‘zbek shevalari misolida ijobiy istak birliklarining struktural modellarini kompleks tadqiq etishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqot doirasida o‘zbek tilshunosligida ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarning lisoniy, pragmatik va lingvokulturologik jihatlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlar tahlil qilindi. Xususan, Sh.M. Alimova, M. Asomutdinova, M.M. Bazarova, K.J. Umarov hamda boshqa olimlarning ishlarida istak birliklarining leksik-semantik, dialektal va konseptual xususiyatlari yoritilganligi aniqlandi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda ushbu birliklarning aynan struktural (morfologik va sintaktik) xususiyatlari yetarli darajada kompleks o‘rganilmagani mazkur maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tizimli-struktural, qiyosiy-tahliliy hamda tavsifiy metodlardan foydalanildi. Ijobiy istak bildiruvchi birliklarning leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari dala materiallari hamda ilmiy manbalar asosida lingvistik tahlil qilindi. Shuningdek, dialektal variantlarni aniqlash va ularning funksional-pragmatik xususiyatlarini ochib berishda kuzatuv va umumlashtirish usullari qo‘llanildi.

Tahlillar va natijalar. Ijobiy istak birliklarining morfologik strukturasi tahlil qilinganda, ular asosan fe’lning buyruq-istak mayli affikslari orqali shakllanishi ko‘zga tashlanadi. Adabiy tilda bunday birliklar *-sin, -sinlar, -gay, -gaysan* kabi qo‘shimchalar yordamida yasalsa, shevalarda ularning o‘ziga xos fonetik-morfologik variantlari faol ishlatiladi.

Istak mazmunidagi lisoniy birliklarning leksik sathdagi tuzilishi tayanch so‘z va ko‘makchi yoki yasovchi morfemalarning birikuvi asosida hosil bo‘ladi. Masalan, an’anaviy to‘y va oilaviy marosimlarda ishlatiladigan iboralarda tayanch leksemaning semantikasi markaziy rol o‘ynaydi. Bu borada turli hududlardagi dialektal xususiyatlarni kuzatish mumkin. Xorazm qipchoq shevalari leksik-grammatik sathda o‘zining qadimiy turkiy qatlamini saqlab qolganligi sababli, istak birliklarining morfologik strukturasida ham o‘ziga xoslik namoyon bo‘ladi. Masalan, dala yozuvlarida qayd etilgan quyidagi istak birligini olib qaraylik: *Tapqaniŋ jaxshi guna, toylara buyurg‘ay*. Ushbu birlik strukturasida *topgan* (moddiy boylik), *yaxshi kun*, *to‘y* leksik asos sifatida; kelasi zamon va istak mazmunini ifodalovchi qadimiy turkiy *-g‘ay* affiksining saqlanishi (*buyurg‘ay*). Bu yerda fe’lning struktural yasalishi [o‘zak/negiz + buyruq-istak mayli shakli] morfologik modelida shakllangan. Shuningdek, hududiy nutqiy etiketlarda morfologik assimilyatsiya hodisasi istak birligining tashqi strukturasini qisman o‘zgartiradi. Xonqa tumanidan yozib olingan duo matnida *Ot balasinnan suv balasinnan o‘ziŋ saqlag‘aysan*

shakli uchraydi. Bu yerda chiqish kelishigi qo‘shimchasining *-dan* o‘rniga *-nan* shaklida assimilyatsiyaga uchrab qo‘llanilishi (*balasinnan*) kuzatiladi. Fe’l qismi esa *-g‘aysan* affiksi yordamida II shaxs birlikka yo‘naltirilgan istak strukturasini hosil qilmoqda.

Yozib olingan dala materiallarida istak birliklari ko‘pincha qisqargan morfologik shakllarda va tovush o‘zgarishlari bilan namoyon bo‘ladi: *Ko‘plani mingajsan* (yangi ulov olgandagi tilak) yoki Ajaq iziŋ jarashqay. Bu yerda [ko‘p + larni] leksemasining *ko‘plani* shaklida reduksiyaga uchrashi yoki [min + gay + san] strukturasining fonetik moslashuvi istak gaplarning tezkor kommunikativ tabiati bilan izohlanadi.

Sintaktik nuqtayi nazardan ijobiy istak bildiruvchi birliklar alohida gap tipini tashkil etadi. Istak gaplar so‘zlovchining istak-xohishi, orzu-umidi va niyatini ifoda etuvchi mustaqil kommunikativ birlik bo‘lib, ularning sintaktik qurilish modeli o‘ziga xos xususiyatlarga egadir.

Ijobiy istak birliklarining sintaktik tuzilishini quyidagi modellarga ajratish mumkin:
1. Sodda yig‘iq va yoyiq gap strukturasi. Ushbu model eng keng tarqalgan bo‘lib, ko‘pincha egasi yashiringan holatda keladi. Chin dildan chiqqan tilaklarda ba’zan *Xudo, Olloh* kabi egalar tushirib qoldiriladi va asosiy urg‘u kesimga qaratiladi. Masalan: Umriŋiz uzaq bo‘sin, Yo‘llariŋ bo‘lavirsin. Ushbu sodda gaplarda [to‘ldiruvchi/hol + kesim] sintaktik qolipi asosiy strukturaviy vazifani o‘taydi.

2. Qo‘shma gap strukturasi. Xalq og‘zaki ijodida va an’anaviy marosimlarda ijobiy istaklar ritmik-sintaktik jihatdan mutanosib bo‘lgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar shaklida voqelanadi. Bunday qurilish nutqning ta’sirchanligini va ekspressivligini oshiradi. Tadqiqotlarida qayd etilganidek, istak mazmunini ifodalovchi frazemalar va paremiyalar ko‘pincha teng bog‘lanishli yoki yonma-yon joylashgan gaplar tarzida tuziladi: *Qozon to‘la osh bersin, yostiq to‘la bosh bersin*, Omin, qadam yetdi, balo yetmasin. Ushbu misollarda [ega + hol/to‘ldiruvchi + kesim], [ega + hol/to‘ldiruvchi + kesim] tarzidagi parallel sintaktik konstruksiya aniq ko‘rinib turibdi. Qismlar o‘zaro bog‘lovchilarsiz, faqat ohang va mantiqiy ketma-ketlik orqali birikadi.

3. Undalmali sintaktik konstruksiyalar. Ijobiy istaklar tinglovchiga yoki ilohiy kuch (Alloh)ga yo‘naltirilganligi sababli, ularning strukturasida undalmalar faol ishtirok etadi. Diniy va sotsiologik xoslangan duo matnlarida murojaat obyekti sifatida Yaratganga nido qilish kuchlidir: *Yo Allohim, opam bilan akam hamisha sog‘-salomat yurgayla, Xudoyo, umridan baraka topsin*. Bu yerda sintaktik qurilish [undalma + ega + hol + kesim] ko‘rinishida shakllangan bo‘lib, undalma gapning pragmatik yo‘naltirilganligini ta’minlaydi.

Ijobiy istak birliklari faqatgina grammatik elementlar yig‘indisi emas, balki teran etnomadaniy va frazeologik strukturaga ega bo‘lganbirliklardir. Xalq marosimlari, xususan to‘y, beshik to‘yi yoki yangi uyga ko‘chish bilan bog‘liq vaziyatlarda standartlashgan

lingvomadaniy birliklar vujudga keladi. Tadqiqotchi M.Suvanovaning ta'kidlashicha, etnografizmlar etnomadaniy mazmunni ifodalab, tarixiy-madaniy voqelikning tildagi in'ikosi sifatida xizmat qiladi. Frazeologik struktura jihatdan ijobiy istak birliklari metaforik yoki metonimik ko'chimlarga asoslanadi. Dala yozuvlarimizdan olingan misollarni tahlil qilsak: *Tejinnan shamal otib dursin* (Tagidan shamol o'tib tursin) yangi mashina olganda aytiladigan ushbu zamonaviy tilakning ichki strukturasida shamol tezlik va to'xtovsiz harakat metaforasi sifatida kelyapti. Iboraning tuzilishi [o'rin holi + ega + fe'l kesim] shaklida qotib qolgan. *Qoshqaniŋ bilan qosha qarriyaysan* nikoh to'ylarida qo'llanuvchi ushbu qadimiy istak frazeologizmining sintaktik strukturasi paremiologik xususiyatga ega bo'lib, *qoshqani, qosha, qarri* so'zlari orqali alliteratsiya hosil qilinib, ohangdorlikka erishilgan. Konseptual jihatdan olganda, bunday nutqiy aktlarning semantik va sintaktik tuzilishi muloqot maqsadi bilan bevosita bog'liqdir. Olimlarning fikricha, muloqot maqsadi turli nutqiy aktlarni yuzaga chiqaruvchisi sifatida lokutiv, illokutiv va perlokutiv bosqichlarida namoyon bo'ladi. Ijobiy istaklarda illokutiv kuch ezgulik tilash va qo'llab-quvvatlash bo'lsa, perlokutiv effekt tinglovchida psixologik taskin, quvonch va shukronalik hissini uyg'otishdan iboratdir.

Struktural tadqiq faqatgina gap bo'laklari yoki so'z turkumlarini sanash bilan cheklanmaydi. Kommunikativ vaziyat talabiga ko'ra, istak birliklarining o'ziga xos pragmatik qoliplari mavjud. Istaklar aksariyat hollarda muayyan stereotip vaziyatlarga biriktirilgan bo'ladi:

Mehmon kuzatish vaziyatlarida: *Jaxshi, sag' boliŋ, jaxshi bariŋ, galib duriŋ...* Qolip: [holat + buyruq fe'li]. Taskin berish vaziyatlarida: *Jaqshi bo'p ketasan hali, Xudo xohlasa, ko'rmaganday bo'p ketasiz*. Qolip: [umid / kelajak ko'rsatkichi + istak]. Bunday holatlarda istak x*udo xohlasa, ilohim* kabi modal so'zlar yoki kiritmalar bilan birga kelib, strukturani pragmatik jihatdan yumshatadi. Mehnat jarayonida: *Harmaŋ, Barbo'ŋ*. Bu eng ixchamlashgan struktura bo'lib, birgina so'z yoki fe'l formasi orqali butun boshli istak-duo mazmunini ifodalash quvvatiga ega.

Shuni ham ta'kidlash joizki, ijobiy istaklar ko'p hollarda diniy e'tiqod va qadriyatlar bilan qorishib ketgan bo'lib, ularning leksik strukturasiga arab va fors-tojik tilidan o'zlashgan leksemalar singib ketgan. Jumladan, *duo, baxt, taqdir, baraka, ilohim, omin* kabi so'zlar istak birliklarining tayanch konseptlarini tashkil etadi. Olimlar ta'kidlaganidek, duo va tilaklar matnida *Omin, Allohu akbar* kabi diniy elementlarning ishtirok etishi musulmon Sharqi muloqot madaniyatining ajralmas xususiyatidir.

Xulosa. Yuqorida olib borilgan lingvistik va dialektologik dalillar tahlili asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, o'zbek tili va uning Xorazm hududidagi shevalarida ijobiy istak bildiruvchi birliklar mukammal va o'ziga xos lisoniy strukturaga ega. Birinchidan, ular morfologik jihatdan qadimiy turkiy buyruq-istak mayli affikslarini (-

g‘ay, -sin) qat’iy saqlagan holda shakllanadi. Ikkinchidan, sintaktik strukturasiga ko‘ra ular ko‘pincha egasi yashiringan sodda gaplar yoki bog‘lovchisiz birikkan parallel qo‘shma gaplar tarzida voqelanadi. Uchinchidan, leksik-frazeologik va pragmatik sathda ushbu birliklar oddiy so‘z birikmasidan ko‘ra kengroq ma’no tashiydigan, metafora va metonimiya asosiga qurilgan yaxlit lingvomadaniy kodlar hisoblanadi. Ijobiy istak birliklarining struktural tadqiqi nafaqat tilning grammatik qurilishini, balki xalqning milliy tafakkuri, dunyoqarashi va ruhiyatini lingvistik aspektda tushunishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alimova Sh.M. Xorazm qipchoq shevalarining leksik-grammatik xususiyatlari. Monografiya. – Urganch: Khwarezm publication, 2024. –132 b.
2. Asomutdinova M. O‘zbek tilida ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklarning lisoniy xususiyatlari. Bitiruv malakaviy ishi. – Andijon: ADU, 2016. – 62 b.
3. Bazarova M. M. O‘zbek tilidagi ijobiy istak mazmunini ifodalovchi nutqiy birliklarning lisoniy xususiyatlari (duolar va nutqiy etiketlar asosida): Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: TDPU, 2007. – 129 b.
4. Dadajonova O. Istak gaplarning pragmatik xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent: Fan, 2017. №6. – B. 106–109.
5. Sulaymonova H. H. Tilak mazmunli birliklarning diniy va sotsiologik xoslanganligi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 2, Issue 10. –Toshkent, 2022. – B. 76–81.
6. Suvanova M. X. O‘zbek xalq shevalari urf-odat, marosim leksikasining lingvoareal talqini: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Qarshi: QarDU, 2023. – 134 b.
7. Umarov K. J. O‘zbek tilida xohish-istak kategoriyasining ifodalanishi va uning lingvokulturologik aspekti: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –Andijon: ADU, 2023. – 131 b.
8. Xoliqulova Sh. Istak mazmunidagi lisoniy birliklarning konseptual xususiyatlari // Conference on the role and importance of science in the modern world. Volume 02, Issue 09. – Samarqand, 2025. – B. 85–88.
9. Xorazm shevalari bo‘yicha dala yozuvlari materiallari. (Dialektologik ilmiy ekspeditsiya manbalari). – Urganch, 2025. – 260 b.